

BXSR TASHQI SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

Juliboyev Alimardon Abdulmajid o'g'li,

Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi

LEGAL BASIS AND MAIN DIRECTIONS OF THE FOREIGN POLICY OF THE BPSR

Juliboyev Alimardon Abdulmajid o'g'li,

student of the department "History" of KSPI

ПРАВОВАЯ БАЗА И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ БНСР

Жулибоев Алимардон Абдулмажид угли,

студент направления «История» КГПИ

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashqi siyosati va uning huquqiy asoslari haqida so'z yuritamiz. Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar, dunyo davlatlarining o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Jahon mamlakatlari ichki va tashqi siyosatida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash, millatlararo totuvlik, keng iqtisodiy va madaniy hamkorlik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: BXSR, tashqi siyosat, Yevropa, siyosiy jarayonlar, Rossiya, iqtisodiyot, huquqiy hujjatlar.

Annotation: In this article, we will talk about the foreign policy of the Bukhara People's Soviet Republic and its legal foundations. Studying the socio-economic, political and cultural processes taking place in the world, the relations of mutual cooperation of the countries of the world is becoming one of the urgent issues of today. In the domestic and foreign policy of the countries of the world, issues of strengthening mutually beneficial cooperation, international harmony, wide economic and cultural cooperation are of particular importance.

Keywords: BPSR, foreign policy, Europe, political processes, Russia, economy, legal documents.

Аннотация: В этой статье мы поговорим о внешней политике Бухарской Народной Советской Республики и ее правовых основах. Изучение социально-экономических, политических и культурных процессов, происходящих в мире, отношений взаимного сотрудничества стран мира становится одним из актуальных вопросов современности. Во внутренней и внешней политике стран мира особое значение приобретают вопросы укрепления взаимовыгодного сотрудничества, международного согласия, широкого экономического и культурного сотрудничества.

Ключевые слова: БНСР, внешняя политика, Европа, политические процессы, Россия, экономика, правовые документы.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatidagi tub islohotlar va ijobiy o'zgarishlar tashqi aloqalar tarixini xolis va ilmiy asosda o'rganishni dolzarb masalalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. Mazkur jarayon 1920 - 1924 yillarda mavjud bo'lgan Buxoro Xalq Sovet Respub-

likasi (BXSR)ning iqtisodiy va madaniy aloqalari tarixini umum e'tirof etgan ilmiy tamoyillar asosida yaxlit tadqiq qilishni zaruratga aylantirmoqda.

AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya kabi mamlakatlar ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, xalqaro munosabatlar tarixi, jumladan, sovet hokimiyati



E-mail:

alimardonjoliboyev727@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-7195-9407>

Tel: +998 90 852 68 48

yillarida O'rta Osiyoda yuz bergan tarixiy jarayonlar, xususan, BXSReda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar, sovet hokimiyatiga qarshi kurash masalalari o'rganil-moqda. Biroq BXSReda 1920-1924 yillarda RSFSR, Turkiston ASSR, XXSR, Ukraina, ZSFSR, Sharq davlatlaridan Afg'oniston, Turkiya, G'arbiy Yevropa davlatlari va AQSH bilan olib borgan iqtisodiy va madaniy aloqalari tarixi, mazkur jarayonga sovet hokimiyatining salbiy ta'siri kabi masalalar o'zining ilmiy yechimini kutmoqda. Ushbu holat mazkur masalalarni maxsus tadqiq etishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS). BXSReda tashqi aloqalari mavzusiga oid adabiyotlarni uch guruhga: sovet davrida, mustaqillik yillarida va xorijda e'lon qilingan nashrlarga bo'lib o'rganish mumkin. BXSReda tashqi davlatlar bilan olib borgan munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, respublika hukumati sovet respublikalari va chet mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli, teng huquqli hamkorlikni o'rnatish tarafdori bo'lgan. BXSReda tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari, mazmun va mohiyatini tushunishda respublikaning 1921-yilda qabul qilingan konstitutsiyasini alohida ta'kidlash lozim. Mazkur konstitutsiya to'rt bo'lim, o'n olti bob, sakson moddadan iborat bo'lib o'z davrining eng demokratik konstitutsiyalari qatoriga kirar edi. Konstitutsiyaning uchinchi moddasida Buxoro yagona, bo'linmas va mustaqil davlat deb belgilangan edi. BXSReda hukumati 1921-yilda xorijiy fuqarolarning mulkiy huquqlari to'g'risida muvaqqat nizom qabul qildi. Mazkur nizomga ko'ra, chet ellik fuqarolarning BXSReda hududida hech qanday cheklovlarsiz erkin savdoni amalga oshirishlari, mamlakatdan tovarlarni olib chiqish faqatgina tashqi savdo bo'limi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Turkkomissiya 1920-yil 14-sentyabr kuni Buxoroda bo'lib o'tgan majlisida nutq so'zlagan V.Kuybishev "Buxoro mustaqilligining ta'minlanishi RSFSR barcha fuqarolari oldiga qo'yilgan talab", ekanligini ta'kidlash bilan birga "butun ishini kommunistik manfaatlar ruhida yo'naltirishga" harakat qilishini ham bayon qilgan edi[1].

BXSReda hukumati respublikaning mustaqil moliyaviy siyosat yuritishiga ahamiyat qaratdi. Bu masalada BXSReda rahbarlari F.Xo'jayev va U.

Po'latxo'jayevlar bir qator tadbirlarning tashabbuskori bo'ldilar. 1920-yil sentyabri o'rtalaridan boshlab BXSReda dastlabki milliy valyutasi kumush nuqra muomalaga kiritildi, keyinchalik 50, 100, 200, 500 va boshqa qiymatdagi qog'oz pullar muomalaga kiritildi. 1920-yil 12-oktyabrda moliya noziri U.Po'latxo'jayev imzolagan №3 buyruqda muhirsiz qog'oz aqchalardan foydalanmaslik to'g'risida so'z boradi[2]. BXSReda Ozarbayjon va Gruziya bilan o'rnatgan munosabatlari ayniqsa, samarali bo'lganligini alohida ta'kidlash lozim. Mazkur respublikalar bilan hamkorlik munosabatlari ikki tomonlama shartnomalar, davlat va hukumat rahbarlarining o'zaro yozishmalari, siyosiy va iqtisodiy vakolatxonalar hujjatlari asosida yo'lga qo'yildi. Shu vaqtda BXSReda hukumati Mahmud Said Ahroriyni Buxoroning Ozarbayjondagi siyosiy vakolatxonasi rahbari etib tayinlandi[3].

МУҲОКАМА(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) BXSReda hukumati Kavkaz orti mintaqasi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlik qilishdan tashqari mazkur hududning Turkiya va g'arbiy Yevropa mamlakatlari bozoriga olib chiqadigan ko'prikanligini ham yaxshi tushungan edi. O'tgan asrning 20-yillarida Kavkaz ortining bir qator shaharlarida, jumladan, Boku, Tiflis, Botumi shaharlarida g'arbiy Yevropaning Germaniya, Angliya, Shvesiya kabi davlatlari, AQSH, Turkiya singari davlatlarning savdo kompaniyalari ham faoliyat olib borgan bo'lib, bu yerda ish olib borgan Buxoro savdo komissiyasi mazkur imkoniyatdan samarali foydalanish uchun barcha choralarni ko'rgan edi. BXSReda chet mamlakatlar bilan o'rnatgan munosabatlari masalasida qo'shnisi Afg'oniston bilan olib borilgan munosabatlar muhim ahamiyat kasb etgan edi. Afg'oniston hukumati 1920-yil 26-oktyabrda BXSReda davlat mustaqilligini tan oldi va shu yil 17-dekabrda har ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish haqida kelishuvga erishildi[4]. Bundan oldinroq, 1920-yilning 5-sentyabrida yangi tuzilgan BXSReda hukumati Afg'onistonga o'z vakillarini yuborish zarurligi haqida qaror qabul qildi. Bundan tashqari shu yilning 5 noyabr kuni F. Xo'jayev boshchiligidagi hukumat Afg'oniston hukumatiga sharqda ingliz imperiazimiga qarshi kurashda o'zaro hamkorlik qilish taklifini ilgari suradi[5]. BXSReda hukumati shuningdek, Eron bilan ham diplomatik munosabatlar o'rnatishga harakat qilgan va har ikki

mamlakat elchixonalari qisqa muddat davomida faoliyat yuritgan.

1920-yil 2-sentyabrda Buxoroda amirlik tuzumi ag'darib tashlangach, bolsheviklar sovet andozalari asosida yangi jamiyat qurish, BXSР ustidan mustamlaka hukmronligini o'rnatish siyosatini olib borishga kirishdilar. Buxoroda sovetlar hukmronligi partiya, sovet organlari, ikki o'rtada tuzilgan davlatlararo shartnomalar, sovet tartiblari asosida ishlab chiqilgan harbiy-siyosiy, moliya-iqtisod tadbirlari orqali amalga oshirildi. Qisqasi, BXSР barcha sohalarida sovet xukumatining Turkkomissiya, Turkbyuro, O'rta Osiyo byurosi, SredazEKOSO tashkilotlari tomonidan qat'iy nazoratga olindi[6].

BXSР va uning fuqarolari chet davlatlar, jumladan, RSFSР bilan savdo munosabatlarini BXSР davlat idoralari vositachiligida amalga oshirishi, xorijiy tadbirkorlarga faqat yirik konsessiyalar bo'yicha imkoniyat berilishi belgilandi. Tovar ayirboshlashning RSFSР tashqi savdo xalq komissarligi umumiy nazoratida amalga oshirilishi Buxoro manfaatlariga zid edi. BXSР hukumati mavjud murakkabliklarga qaramasdan, mustaqil tashqi siyosat yuritish maqsadida bir qator sovet respublikalari va chet ellarda o'zining diplomatik va savdo vakolatxonalarini tashkil etdi. Buxoroning xorijdagi davlat muassasalari oldiga an'anaviy iqtisodiy munosabatlarni tiklash va rivojlantirish vazifasi qo'yildi.

Ma'lumki, Birinchi jahon urushiga qadar Buxoro xom ashyosi asosan, Rossiyaga va u orqali G'arbiy Yevropaga chiqarilgan edi. Mazkur davrda Buxorodan xorij bozoriga quruq mevalar, yarim ishlangan terilar, paxta va jun eksport qilingan. Rossiya orqali qorako'l terining asosiy qismi, ipakning 70%, Chorjo'yda ishlab chiqarilgan shirinmiyaning deyarli hammasi xorijga chiqarilgan edi. 1920-yildan keyin vaziyat tubdan o'zgardi. 1920-yilda Buxoro va Rossiya o'rtasidagi savdo 1913-yilgi 75 mln. rubldan 3 mln. rublga, paxta savdosi 2 600 000 puddan 50 000 pudga, qorako'l teri 1 800 000 donadan 100 000 donaga tushib qoldi.

Sovet hukumati BXSР iqtisodiyotini o'z manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlash uchun Buxoroda hukumatlar ishtirokida aralash korxonalar tashkil eta boshladi. Mazkur yo'nalishdagi tadbirlarning amalga oshirila borishi natijasida 1922 yil oktyabrda Chorjo'ydagi sobiq Yaroslavl zavodini qog'oz fabrikasiga moslashtirish boshlandi. 1922-yil 24-oktabrda RSFSР tomonidan BXSРga berilgan

to'qimachilik fabrikasi asosida Erestov tresti bilan shirkat tashkil etildi. BXSР Nozirlar Sho'rosi 1922-yil 11-dekabrda «Rus-Buxoro» paxtachilik shirkatini tashkil etish masalasini ko'rib chiqdi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Bunda BXSРning sovet respublikalari, Osiyo hamda G'arb davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy hamkorlikning yo'lga qo'yilishi va rivojlanish dinamikasi, sovet hukumatining BXSР tashqi aloqalariga tazyiqiga doir ilmiy xulosalardan O'zbekistonning sovet davri tarixini yoritishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan jihatlari aniqlandi. BXSРning iqtisodiy va madaniy aloqalari tarixiga oid bir qator manbalar tadqiq etilib yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi deya olamiz.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, BXSР hukumati mavjud murakkabliklarga qaramasdan, sovet respublikalari, Sharq mamlakatlari va G'arbiy Yevropa davlatlari bilan o'zaro teng hamkorlik qilish tarafdori bo'lgan va shu yo'nalishda siyosat olib bordi. Xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarning samarali va izchil bo'lishi uchun BXSР hukumati tashqi siyosatning mustahkam huquqiy asosini yaratish uchun o'zaro manfaatli shartnomalar tuzgan edi. Lekin RSFSР hukumatining BXSРga nisbatan tutgan mustamlakachilik siyosati natijasida Buxoroning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun xizmat qilishi lozim bo'lgan ezgu ishlar o'z nihoyasiga yetmay qoldi. Bir so'z bilan aytganda, yaxshi niyatlar sarobga aylandi.

Adabiyotlar ro'yxati (Использованная литература / References)

1. Ишанов А.И. Бухарская Народная Советская Республика. – Т: Узбекистан, 1969. – С. 205.
2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар) Биринчи китоб 1917-1939 йиллар. – Тошкент: О'zbekiston, 2019. – Б.152-153.
3. Эгамназаров А. Истиклолчилар қатл этилган жой. Шарқ юлдузи, 1997, № 1. – Б. 203.
4. Ишанов А.И. Бухарская.. Народная. Советская Республика. – Т: 1969. – С. 211.
5. Материалы по истории Бухарской Народной Советской республики. – Т: 1976. – С. 62.
6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2 китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М. Жўраев. –Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.239